



O'ZBEK TILI, ADABIYOTI
VA FOLKLORI INSTITUTI



ADABIYOTSHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI

№ 3

XALQARO ILMIY-NAZARIY ANJUMAN
MATERIALLARI

ADABIYOTSHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI № 3

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ЛИ- ТЕРАТУРОВЕДЕНИЯ № 3

CURRENT ISSUES OF LITERARY STUDIES № 3



АДАБИЁТШУНОСЛИКИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ

ХАЛҚАРДО КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛАРИ



ҲОЗИРГИ АДАБИЙ ЖАРАЁН МАСАЛАЛАРИ

ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ
АНЖУМАН МАТЕРИАЛАРИ

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR
AKADEMIYASI
O'ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ADABIYOTSHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI

III-an'anaviy xalqaro ilmiy- nazariy anjumani

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЯ
III-традиционная международная научно-теоретическая конференция

CURRENT ISSUES OF LITERARY STUDIES
III-traditional international scientific-theoretical conference

2023-yil 4-oktyabr, O'zbekiston.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
“Fan” nashriyoti
TOSHKENT - 2023

UO'K: 82.09-043 (082)

KBK:71.2

X 17

Adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari №3 [Matn] / Nashrga tayyorlovchilar A.Allambergenov va boshq;. - Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashri-yoti, 2023. - 318 bet.

To‘plamdan “Adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari” 3-an’anaviy xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari o‘rin olgan. Maqolalarda filologiya ilmining turli sohalariga oid ilmiy kuzatishlar jamlangan bo‘lib, mazkur sohaga oid barcha mutaxassislarga muljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasi uchuy mualliflarning o‘zları mas’uldir)

To‘plib nashrga tayyorlovchilar:

A.Allambergenov, B.Shukurova, T.Najmuddinov

Tahrir hay’ati:

f.f.d. Suvon Meli, f.f.d. Ulug‘bek Hamdam, f.f.d. Sh.Turdimov, f.f.d. M.Asadov, f.f.n. E.Ochilov, f.f.d. M.Qo‘chqorova, f.f.n. G.Sattorova, PhD A.Allambergenov, PhD B.Shukurova, kich.i.x. T.Najmuddinov, kich.i.x. M.Hakimov, tayanch doktorantlar – M.Otaboyeva, M.Imomaliyeva, M.Abdurahmonova.

Taqrizchi:

f.f.d., prof. Q.Qahramonov, f.f.d. S.To‘laganova

Mazkur ilmiy to‘plib O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Ilmiy kengashi qarori (2023 yil 10-noyabr, 6-sonli yigilish bayonnomasi)ga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9943-19-649-2

© A.Allambergenov, 2023

© O‘zR FA “Fan” nashriyoti, 2023

Muallif o‘z qalbi tasviri bayonida so‘z vositasida betakror rangli olam yaratadi. U yaratgan san’at olami ikkinchi inson – kitobxon ruhida aks – sado beradi. Bu hodisa kongeniallikni yaratadi (lot. ruhan yaqinlik, fikrlash tarzida uyg‘unlik, iste’dod jihatidan o‘xshash). Kongeniallik jamiyat a’zolarining hamkorlikda ruhiy taraqqiyotini ta’minlaydi.

Adabiyotlar:

1. Тиселтон Э. Герменевтика. – Минск: 2008.
2. Султон И. Адабиёт назарияси. –Тошкент: 1985.
3. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз сўз санъати. –Тошкент: 1998.
4. Бобоев Т. Адабиётшунослик назарияси. –Тошкент: 2002.
5. Хализев В.А. Теория литературы. –Москва: 2008.

QORAQALPOQ KENGLIKLARIDAGI GULDASTA

**Gulandom QURAMBOYEVA,
Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti dotsenti,
filologiya fanlari doktori**

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, Qoraqalpog‘iston xalq shoiri Guliston Matyoqubova bugungi adabiy jarayonda faol qalam tebratib kelayotgan ko‘p qirrali ijod sohibasidir. U she’riyatda qanchalik mohir bo‘lsa, poema va dostonlar, drama va ssenariylar yozishda ham shunchalik mahorat egasi. Adabiy-badiiy publisistik maqolalari, hikoya va qissalari, sahna asarlari adiba faoliyatining janriy xilma-xilligidan dalolat beradi.

G.Matyoqubova qoraqalpoq hayatini badiiy talqin qilishda omadli ijodkorlardan biri. Shoira bu xalq turmushini yaxshi biladi, uning hayat nafasini butun vujudiga singdirib, shaxsiy hayotining bir qismiga aylantirib yuborgan. U Qoraqalpog‘iston farzandi, shu makonda tug‘ilib voyaga yetgan. Adabiyotdagi ilk qadamlarini ham shu yerdan boshlagan. Uning yetuk shaxs va ijodkor bo‘lib shakllanishi, kitobxonlar nazariga tushib, hurmat qozonishi ham Qoraqalpog‘iston bilan bog‘liq. Respublikaning ijtimoiy-siyosiy muhiti, adabiyoti va madaniyatini, san’atini, odamlardan tortib tabiatigacha shoira qalbiga singdirib olgan, hayatining mazmuniga aylantirgan. U o‘z ona tilini qanchalik yaxshi bilsa, qoraqalpoq tilini ham shu darajada mukammal biladi. Demak ikki tilda bemalol ijod qila oladi. Tilga olingan omillar uning ijodida “qoraqalpoq” mavzusi turli shakl va mazmunda aks sado berishiga zamin hozirladi. Shoira bu imkoniyatdan foydalaniib, qoraqalpoq mahalliy-milliy sharoiti real tasvirlangan o‘nlab asarlar yozdi. Ularning har birida ona yurtga sadoqat, mehr, qoraqalpoq xalqining o‘ziga xos an’analari va urf-odatlariga, o‘tmishi va bugungi kunida o‘chmas nom qoldirgan siymolariga, shuningdek, hozirda ham Vatan obodligi yo‘lida fidoyi mehnat qilayotgan zamondoshlariga hurmat va ehtirom ko‘rsatdi, eldoshlarining badiiy obrazlarini yaratdi.

“Vatan ruhi”, “Yo‘llaringga chiqdim”, “Ota uyim”, “Ko‘ksimdagil nur”, “Qalb zuraati”, “Amuv jag‘asinda o‘sken bayterek”, “Yangilangan qoraqalpoq diyorim”, 3 jildlik “Saylanma” asarlari shular jumlasidandir. Bu kitoblar o‘zbek va qoraqalpoq adabiyotshunoslari, atoqli shoir va yozuvchilar tomonidan ijobiy baholangan. Yaqinda G‘afur G‘ulom nashriyotida chop etilgan doston, she’riy drama va kinoqissalardan iborat “Qoraqalpoq kengliklarida”1 to‘plami shoiraning muxlislarga navbatlagi armug‘oni bo‘ldi. “Mehrli dunyo”, “Taqdir yo‘llari” (badiiy film ssenariysi), “Guloyim vaa Arslon” (videofilm ssenariysi), “Ustyurtga yo‘l” (to‘liq metrajli badiiy filmning adabiy ssenariysi), “Qatorda noring bo‘lsa” (she’riy drama) “Men nechun sevaman bog‘lar-

ni kuzda” (ruhiy doston), “Aytgin menga To‘rtko‘l haqida” (dramatik doston) dostonlarida o‘zi tug‘ilib o‘sigan qoraqalpoq zamini, uning o‘ziga xos tabiat, odamlarining ruhiyati va kayfiyati, orzu-armonlari, g‘amu tashvishlari, shu yurt an’ana va qadriyatları, yutuq va muammolari asosiy mavzu qilib olingen.

Shoira ijodi mavzu doirasining keng va rang-barangligi, milliy koloriti, o‘ziga xos talqinlarga egaligi bilan ajralib turadi. Milliy kolorit muayyan asarning nomi yoki tashqi formal belgilari bilan o‘lchanmaydi, ichki mazmuniga singdirilgan milliy ranglar, so‘z va ifodalar, detallar, agar konkret obraz haqida so‘z yuritilayotgan bo‘lsa, shaxs, uning harakat faoliyati, fikrlash tarziga qarab aniqlanadi. Bu jarayonda yana bir jihatni unutmaslik kerak. Har qanday milliylik umumbashariy va umuminsoniy miqyos kasb etib, barcha uchun birdek ahamiyatlgi g‘oyalar, mavzular tasvir-lansagina, asar abadiylikka daxldor bo‘lishi mumkin. Milliylik bilan umuminsoniylikni uyg‘unlashtirib tahlil va talqin etish hamisha ijodkor zimmasidagi mas‘uliyatli vazifalardan biri bo‘lmog‘i lozim. G.Matyoqubova bu masalada tajribali, qoraqalpoq milliy koloritini ko‘pchilik uchun mushtarak ijtimoiy-ma’naviy muhit bilan sintezlashtirib tasvirlashga qodir shoirdir. “Qoraqalpoq kengliklarida” to‘plamiga kirgan har bir asarida badiiy komponentlar, ichki mazmunidagi poetik ohang qoraqalpoq koloritini eslatadi.

“Aytgin menga To‘rtko‘l haqida” poemasida hayot so‘qmoqlarida qoqilgan, tuhmatga uchrab, sudning “qora kursi”sida o‘tirishga majbur bo‘lgan bir yigitning vijdon azobidagi nolishlari, vatani, eldoshlari, yaqinlari oldida yuzi shuvut bo‘lib, chekkan iztiroblari tasvirlanadi. Poemaning “Oxirgi maktub” bo‘limida onaizorini sog‘ingan qamoqxonadagi yigitning singlisiga yozgan quyidagi satrlari hayajonli o‘qiladi:

*Men o‘zimdan hazar qilgan on,
Kitoblarni qo ‘ydi oldingga.
Aylay degan paytim tarki jon,
Dedi: “Hayot hali oldinda!”
Bo ‘ysunmasa menga qo ‘llarim,
Mo ‘yqalamni tutqazdi dadil,
Men onamiz suratin chizdim,
Artilganday bo ‘ldi kir ko ‘ngil.* (416-bet)

G.Matyoqubova qo‘llagan poetik obrazlar aynan lirik qahramondagi his-tuyg‘ular qarama-qarshiligini yoritishga qaratilgan. Muallif tabiat yoki hayvonot dunyosidan obraz tanlaydimi yoki osmon, koinot bilan bog‘liq hodisalarga murojaat etadimi, ma’noni o‘quvchiga obrazli tarzda yetkazishga xizmat qiladigan timsolu tashbehtar topadi.

“Men nechun sevaman bog‘larni kuzda” ruhiy dostonida mavzu talqini boshqacharoq. Doston ramzlarga qurilgan. Shoira lirik qahramon xarakterini ochish uchun tabiatdan foydalanadi. Turli fasllardan obraz tanlaydi. Tabiat hodisalari shoira uchun shunchaki, oddiy ko‘rinish emas, balki fikr aytish uchun poetik vosita vazifasini ham o‘taydi. “Qo‘shiq”, “ovoz”, “shamol”, “sharpa” timsolida lirik qahramonning ichki kechinmalari, quvonchu tashvishlar ba’zan tabiat manzaralari fonida, ba’zan shoirning monologi orqali yoritilgan.

Shoir:

*Yanglishlar, pushmonlar, armonlar,
Oyoqlar ostiga to ‘shalgan,
Ummonga sig ‘magan osmonlar.
Oylari, yulduzi xiradir,
Tonglarning ko ‘nglida ginadir.* (434-bet)

Ovoz:

*Ko ‘zlaring yoshiga g‘arq bo ‘lar ba’zan,
Yashagan damlaring baxtli lahzalar.*

*Barini boshlaysan yana qaytadan,
Yaralar bitadi, og'riq tuzalar. (437)*

Lirik qahramonning kechinmalari bu, eng avvalo, shoir kechinmalari, o'y-xayollari bilan bevosita bog'liq. She'r o'sha tuyg'ularning badiiy umumlashmasi. Aslida shoirning ba'zi asarlaridaagi ehtirosli iqror va inkorning tub mohiyatida muallifning hayotiy tajribasi, ko'rgan-kuzatgallari asosida shakllangan taassurotlari yotadi. Shoir o'z quvonchi yoki qayg'usini ko'pchilikning shodligi yoki qayg'usi bilan uyg'unlashtirib talqin eta olsagina haqiqiy she'r yuzaga keladi.

G.Matyoqubova obrazli tafakkur qilishga usta shoira. Taqdir yo'llarida lirik qahramon xayolidan o'tgan fikrlar ifodasi poetik obrazlarga yuklangan.

*Yurakka bog 'lanar,
O'yga bog 'lanar,
Og 'ochga osilar nigohlar bir dam
Xazonlar titrasa, yig'laydi bog 'lar... (428 bet)*

Doston noan'anaviy usulda bitilgan. Talqin yo'nalishi ham boshqacha. Muallif uni "ruhiy doston" deb ataydi. Bu asar shoiraning olam va odam haqidagi falsafiy qarashlarini original poetik obrazlarda, ramziy ma'noda ifodalash borasidagi yangi qadami bo'ldi.

Shoira lirkasidagi ayrim poetik obrazlar, detallar inson ruhiyatidagi kolliziyani badiiy ifodalashga yo'naltirilgan. Hayot juda murakkab. Inson psixologiyasi bundan-da ziddiyatli: yaxshilik bilan yomonlik hamisha yonma-yon yuradi, quvonch bor joyda qayg'u ham mavjud, sadoqatning kushandasasi xiyonat, ma'rifat bilan jaholat doimo o'zaro kurashib kelgan. Bu axloqiy qarashlar o'rtasidagi ziddiyatni tahlil qilish adabiyotning azaliyi va abadiy mavzularidandir.

To'rt pardadan iborat "Qatorda noring bo'lsa" nomli she'riy drama taniqli qoraqalpoq olimi, shoir va davlat arbobi Navro'z Japaqovning yorqin xotirasiga bag'ishlangan. Avtobiografik xarakterdagi bu dramada real voqealar tasvirlangan. N.Japaqovning murakkab hayot va mehnat yo'li, nohaq tuhmatga uchrab, qamoq jazosini o'tashi, haqiqatning qaror topishi asar qahramonlarining ruhiyati, dunyoqarashi va fe'l atvorida namoyon bo'ldi. Har bir personaj nutqidagi individuallik orqali ularning hayotda qanday inson ekanliklari muhabbatga, oila va odamlarga munosabat fonida ochib berilgan. Asarda ustoz-shogird munosabatlari ham badiiy jihatdan mukammal. Ustoz monologi bilan boshlangan asar shogird monologi bilan yakunlanadi. Bu tasvirda ham ramziy ma'no mujassam. Ustozlar boshlagan ulug' yo'lni shogirdlar davom ettiradi. Drama yakunida istiqlolning bizga bergen buyuk ne'matiga shukronalik hissa shogird monologi orqali ifodalangani asarning pafosiga aynan monand.

*Mustaqillik yo'llari ravon-ravon yo'l bo'ldi,
Qoraqalpoq cho'llari chaman-chaman gul bo'ldi.*

*Dunyo eshiklarini bir-bir ochib boramiz.
Yukiga yelka tutib, el koriga yaraymiz! (381-bet)*

O'z hayoti va ijodiy faoliyatini Qoraqalpog'iston bilan izchil bog'lagan, ikki qondosh xalq – o'zbek va qoraqalpoq adabiyoti taraqqiyotiga jo'shqin satrlari bilan beqiyos ulush qo'shib kehayotgan hassos shoira Guliston Matyoqubova bugun tabarruk 75 yoshini qarshi olmoqda. Biz Guliston opaga mustahkam soglik tilab, keyingi ijodlarida omad yor bo'lsin deymiz!

MUNDARIJA

ADABIYOT NAZARIYASI VA ADABIY ALOQALAR

O.Karimov. Donishmand ustoz, mehribon murabbiy baxtiyor nazarovning ilmga baxshida umri.....	3
M.Yo'ldoshev. Bizdan faqat yaxshilik qoladi	6
R.Barakaev. Hozirgi o'zbek bolalar she'riyatida shakliy izlanishlar.....	8
Sh.Axmedova, M. Mustafoyeva. Adabiyotshunoslikda turkumlilik hodisasi.....	13
R. Abdullaeva. Nemis tili xususida mark tvenning fikr mulohazalari ("Dahshatli" nemis tili" adabiy-tanqidiy esesi misolida)	17
M. Qo'chqorova. Shukur Xolmirzaev badiiy-publitsistikasida janrlar xilma-xilligi	23
U.Rasulova,Y.Madaliev. Hikoya janridagi yangilanishlar	25
M.Tojiboev. Germenevtikaning psixologik aspekti	29
G.Quramboyeva. Qoraqalpoq kengliklaridagi guldasta	34
E.Ochilov. "Naqshband" dostonida kompozitsiya va syujet	37
G. Sattorova. Ulug'bek Hamdam hikoyalarida estetik ideal va falsafiy talqin	44
S.Jumayeva. Ikrom Otamurodning "Tag'azzul" dostonida shakl va mazmun mutanosibligi	47
B.Shukurova. Tarixiy romanda syujet va konflikt masalasi	51
Z.Jamolova. Adabiy obzor janrining komrozitsion xususiyatlari	53
E.Ochilov. "Yonayotgan yo'l" – murakkab syujetli doston	56
S.Jumayeva. "Sopol siniqlari" dostonida ramziy va falsafiy tasvir talqinlari	63
B. Buranova. Tarixiy haqiqatning badiiy talqini	67
G.Shukurova. Tarixiy-biografik badia janri: hayotiy materialning badiiy-publitsistik talqini	70
I.Rejapov. Badiiy matnning ramziylik xususiyati	73
M.Otaboyeva. Dikkens uslubiga xos yumorning tarjimada berilishi	76
M.Abduraxmonova. Ramz tasnifi xususida	81
N.Karimova. Iste'dod tushunchasining adabiy-nazariy tavsifi	83
M.Suyunova. G'arb va Sharq adabiyotshunosligida obraz yaratishning o'ziga xos jihatlari	86
A.Zaripov. Abdulla Oripov peyzaj lirikasi: tabiat va inson dialogi.....	88
X.Nishonova. "Odamxo'r" romanida davr tasviri (<i>yozuvchi Ismoil Shomurodovning "Odamxo'r" romani haqida mulohazalar</i>).....	92
R.Botirova. Abdulla Oripov va Shekspir ijodida muhabbat tasviri.....	96
J. Islomov. Isajon Sulton tarixiy romanlar ustasi sifatida ("Alisher Navoiy" romani misolida)	100
Sh. Tursunova. O'zbek adabiyotida hajvchilik talqini (<i>Erkin Vohidov va G'afur G'ulom asarlari talqinida</i>)	103
G.Axmedova. Ingliz adabiyoti durdonalaridan biri "Daniel Deronda" asarining tahlili ...	106
M.Hakimov. «Ming bir yog'du» dostonida kechinma syujet ifodasi.....	109

HOZIRGI O'ZBEK ADABIYOTI

S. Meli. Umri aziz	118
S.To'laganova. Adabiy jarayonda milliy roman muammolar	119
M. Otajanova. Nodir Normatov hikoyalarida tosh kulti	125
L.Sharipova. Ruhiyat musavviri	127
X.Xamrakulova. Milliy uyg'onish davri pedagogikasida bolalar adabiyoti muammolari	130
O.Karimov, G.Mamajonova, Y.Zokirjonov. Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" asari – tarixiy-romantik fofja	137
A.Allambergenov. Detektiv qissalar syujetida o'ziga xoslik	139
N.Mirzaeva. Bolalar adabiyoti - badiiy adabiyotning muhim tarmog'i sifatida	142
B.Abdurahmonova. Bir ayol qismatining hikoyadagi ifodasi	144
M.Pirnazarova. "Uyg'onish" she'ridagi falsafiy mazmun	145
A.Eshniyazova. Nazar Eshonqulning "Taqiq mevasi" romanida taqdir konsepti talqini...147	
N.Azizova. Turk ma'rifatparvar shoiri Ziyo Go'kalp ijodi	150
F.Qurbanova, M.Bobojonova. Normurod Norqobilovning "Changalzor iti" qissasida insoniy munosabatlar talqini	153
M.Hakimov. Dostonda tarixiy shaxs obrazi	155
M.Mirsanova. Cho'g'i ado bo'lmaydigan ijodkor	159
D.Xusanova. Erkin Vohidov ijodida g'azal janrining o'rni va ahamiyati	161
A.Zaripov. Abdulla Oripov poetikasida tabiat xossalari va hodisalari orqali insonni va jamiyatni badiiy-estetik tadqiq etish	164

FOLKLORSHUNOSLIK

Sh.Turdimov. Mamatqul Jo'rayev ilmiy merosi va etnofolkloristik yo'nalish	168
C.Бахадырова. Академик Төре Мырзаев хәм Қарақалпақ фольклорлизерлеу илеми	171
N.Sabirova. Xorazm baxshichilik san'ati: an'anaviylik va ijrochilik	175
Y.Rahmatov. Akademik To'ra Mirzayevning o'zbek xalq maqollarini to'plash va nashr etishga doir prinsiplari	179
L.Xudayqulova, D.Mexliyeva. Nikoh to'yi marosimi bilan bog'liq urf-odatlar ("Alpomish" dostoni misolida)	183
M.Jo'rayeva. M.Jo'rayevning "O'zbek folklorshunosligi" ilmiy-biobibliografik tadqiqoti xususida	189
Z.Rasulova. Ertak va uning tadqiqi masalalari	191
B.Mirzaeva. "Alpomish" dostonining yozib olinishi	193
D.Igamuratova. Ertaklardagi fantastik elementlar va qahramonlar qiyofasining tarjimada aks etishi borasida ayrim mulohazalar	195
F.Abduraxmonova. O'zbek xalq yor-yorlarida badiiy san'atlarning qo'llanilishi	199
E.Jumanov. "Ajdar qush" ertagidagi an'anaviy motivlarning mifologik asoslari	203
N.Ergashov. Tog'da toychoq kishnaydi (<i>O'zbek xalq marosim qo'shiqlarida badiiy takrorlar</i>)	206

M.O‘rinova. Oxunjon Safarov – o‘zbek xalq bolalar o‘yinlarining tadqiqotchisi	211
D.Oripov. Ikki daryo oralig‘i – turkiy eposlar ibtidosi(mi)?!	213
T.Najmiddinov. Tog‘ay Murod ijodida folklor motivlari	219

MUMTOZ ADABIYOT

E.Ochilov. Alisher Navoiy va Riyoziy Samarqandiy	224
Z.Sayliyeva. Ibrohim Haqqul – navoiyshunos	229
Z.Rahmonova. Navoiy asarlarida ishq savdosi	234
Sh.Rahmonova. Sadriddin Ayniy navoiyshunos olim	236
N.Xudoyorova. Alisher Navoiy-Foniyning Amir Xusrav g‘azallariga tatabbu’lari (“Devoni Fony” misolida)	238
M.Imomaliyeva. Amiriyning ilk hamd g‘azali	244
F.Yaxyoyev. Alisher Navoiy she’riyati taraqqiyoti tadqiqi (<i>Ibrohim Haqqul ilmiy merosi misolida</i>)	249
M.Shomurodova. Firdavsiyning “Shohnoma” asari Ayniy talqinida	252
D.Asqarov. Hukmdor ijodkorlar ijodida muxammas (<i>Husayniy va Amiriy ijodi misolida</i>)	254
Sh.Safarova. About the beginning of the basmalai sharif in the epic «Hayrat ul-abror» with the syentencye «Bismillahir rahmonir rahim»	258
N.Tursunova. Muqimiy ijodida an’ana va o‘ziga xoslik	262
M.Muxammadiyeva. Imom G‘azzoliyning “Risolat ut-tayr” asaridagi o‘ziga xosliklar....	265
N.Rahmonov. Madalixonmi yoki Ma’dalixon?	267
N.Umurova. Ahmad Yassaviy hikmatlarida tasavvufiy tushunchalar talqini	269
L.Axmadaliyev. “Tazkirai Qayyumiylar” asaridagi №67-100-fiqralarning qo‘lyozma va nashr o‘rtasidagi matniy-qiyosiy tadqiqi	272
H.Raimova. Qo‘qon adabiy muhitining o‘ziga xos jihatlari xususida	280
R.G‘oyibboyeva, H.Fayziyeva. Alisher Navoiy asarlarida olimlar tavsifi	283
J.Abdullaev. Qul Ubaydiy devonining o‘rganilishi	285
N.Babakulova. Alisher Navoiy ruboilarida o‘ziga xoslik	289
L.Rustamova. Umumiy o‘rta ta’lim mакtablarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o‘rganish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	293
S.Xolbekov. Turkiy agiografik asarlar haqida	296
I.Abdurayimova. Maktubot tasnifi va ularning xususiyatlari	301
M.Hakimov. Doston syujetida tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima.....	307



